

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

## ABDULLA QODIRIY IJODINI O‘RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

**Djabbarova Nodira Shovkat qizi,**  
Ona tili va adabiyot kafedrasida o‘qituvchisi,  
TDSHU akademik litseyi  
E-mail: [nodiraazamova80@gmail.com](mailto:nodiraazamova80@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosida adabiyotimizdagi noyob va nodir asarlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish, ulardagi tub hamda yashirin ma‘nolar xazinasining eshigini ularga ochishda ko‘maklashish, tarixdagi xalqimizning boshidan o‘tgan voqealar haqida ular yaqindan ma‘lumot berish, asarlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish yordamida turli yot g‘oyalarga nisbatan ma‘naviy immunitetni hosil qilish, badiiy asarlarning ham botiniy, ham zohiriy ma‘nolarini tushuna olish maqsadini ko‘zda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, badiiy tahlil, obraz, botiniy ma‘no, zohiriy ma‘no.

**Аннотация.** В данной статье исследуется и анализируется творчество Абдуллы Кадыри и на этой основе читатели знакомятся с уникальными произведениями нашей литературы, помогаем им открыть дверь в сокровищницу глубинных и скрытых смыслов, рассказываем им о событиях, которые пережил наш народ в истории, создавая моральный иммунитет к различным чуждым идеям с помощью разъяснения сути произведений, цель состоит в том, чтобы суметь понять как внутренний, так и внешний смыслы произведений искусства.

**Ключевые слова:** джадидизм, художественный анализ, образ, внутренний смысл, внешний смысл.

**Annotation.** This article explores and analyzes the work of Abdulla Kadiri and on this basis, readers get acquainted with the unique works of our literature, help them open the door to the treasury of deep and hidden meanings, tell them about the events that our people have experienced in history, creating moral immunity to various alien ideas by clarifying the essence of the works, the goal is to be able to understand both the inner and outer meanings of works of art.

**Key words:** Jadidism, artistic analysis, image, inner meaning, outer meaning.

O‘zbek adabiyoti tarix yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. “Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtayi nazardan tekshirishga moslashgan bo‘lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko‘plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik taffakuri taraqqiyotidagi tarixiy o‘rni xolisona belgilanayotir”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup>Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006, 94-b.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Darslarda Abdulla Qodiriy asarlarini o‘rganish o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham o‘zgacha shavq va zavq beradi. Yozuvchi asarlarini tub mohiyatini tushunishda, albatta, badiiy tahlil hamda asarni sharhlash, obrazlarni ta’riflash katta yordam beradi. Maktab hamda akademik litsey darsliklarida adibning quyidagi asarlari berilgan. “Uloqda” hikoyasi, “Mehrobdan chayon” romanidan parcha, “O‘tkan kunlar” romanidan parcha.

Bu asarlarni o‘tishda, avvalo, yozuvchi hayoti haqida batafsil ma’lumot berish lozim. Abdulla Qodiriy - yorqin, barchaga keng ma’lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o‘zbek adabiyotida roman janri asoschisi. Qodiriyning asarlari o‘zbek xalqi hayotiga bag‘ishlangan. Yoshlik va o‘smirlik yillardagi muhit - savdogarlar, boylar va kambag‘al dehqonlar, iqtidorli hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo‘lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyolilari bo‘lajak yozuvchi shakllanishida muhim o‘rin tutdi. Uning otasi bog‘dorchilikni juda yaxshi ko‘rgan, shu sabab, Qodiriyning o‘zini bog‘bonning o‘g‘liman, degan fikrlarini uchratish mumkin.

Asarlari:

“O‘tgan kunlar” (roman), “Mehrobdan chayon” (roman), “Obid ketmon” (qissa), “Girvonlik Mallaboy”, “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov”, “To‘y”, “Millatimga” va b.

Mukofotlari:

1991-yil 25-avgust kuni O‘zbekiston prezidenti farmoni bilan “Mustaqillik” ordeniga sazovor bo‘lgan.

Abdulla Qodiriy ijodini o‘tishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: avvalo, dars Qodiriyning suddagi nutqi bilan boshlanadi. Ya’ni o‘qituvchi sabab va natija g‘oyasidan foydalangan holda birinchi natijani o‘quvchilarga aytadi. O‘quvchilarda esa o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi? Nega bunday bo‘ldi? Shu onda o‘qituvchi sekin-astalik bilan adib hayotiga olib kiradi. Uyga vazifa qilib, badiiy asarni mutolaa qilish beriladi. Shu tariqa keyingi mavzular bilan o‘zaro bog‘liqlik vujudga keladi.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Abdulla Qodiriy (1894 –1938)



Abdulla Qodiriy

*SQ‘ZIM OXIRIDA ODIL SUDLARDAN SO‘RAYMAN: GARCHI MEN TURLI BO‘HTON, SHAXSIYAT VA SOXTALAR BILAN IKKINCHI OQLANMAYDURG‘ON, BO‘LIB QORALANDIM. LOAQA ULARNING, QORALOVCHI QORA KO‘ZLARING KO‘NGLI UCHUN BO‘LSA HAM MENGA ENG OLIY BO‘LG‘ON JAZONI BERA KO‘RINGIZ. KO‘NGLIDA SHAMSI G‘UBOROTTI. TESKARICHILIK MAQSADI BO‘LMAG‘ON SODDA, VLIDONLI YIGITGA BU QADAR XO‘RLIKDAN O‘LIM TANSIQROQDIR. BIR NECHA SHAXSLARNING, ORZUSICHA MA‘NAVYI, O‘LIM BILAN O‘LDIRILDIM. ENDI JISMONYI O‘LIM MENGA QO‘RQINCH EMASDIR.*

*ODIL SUDLARDAN MEN SHUNI KUTAMAN VA SHUNI SQ‘RAYMAN.*

**1926-YIL 15-IYUN, SAMARQAND**

(ABDULLA QODIRIYNING SUDDAGI NUTQIDAN).

## ILK ASARLARI:



Pyesasasi:

- Baxtsiz kuyov

Hikoyalari

- Juvonboz
- Uloqda

## Eng mashhur asarlari:



## ANVAR VA RA‘NO OBRAZLARIGA TAVSIF BERING.



## “MEHROBDAN CHAYON” ROMANI



\* Sizingcha asardagi chayon kim?

O‘ylab ko‘ring aziz bolalar, asar nomi nima uchun bunday ataldi?

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami


OTABEK VA KUMUSH OBRAZLARIGA TAVSIF BERING.



“INSERT” USULI

ADIBNING TAXALLUSI	TUG‘ILGAN YILI	ENG MASHHUR ASARLARI	OILAVIY SHAROITI	IJDIGA OID ENG MUHIM SANALAR

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANI HAQIDA BILGANLARIM SXEMASINI TO‘LDIRING.



## ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006,
2. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1976,
3. Yo‘ldoshev Q. Tahlil mashaqqatlari. “O‘zAS” gazetasi, 1993/ 20.
4. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1994.
5. Qodiriy A., O‘tkan kunlar. -T.: Cho‘lpon, 2004.
6. Qodiriy asarlar to‘plami. -T.: Yangi asr avlodi, 2022.